


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy madaniyat fakul’teti 3-bosqich “G” gurux talabasi
Ashurov Boburbekning

**JISMONIY MADANIYATNI O‘QITISHDA INNOVATSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR** fanidan

REFERAT

Mavzu: Didaktikaning predmeti



Bajardi: _____

Tekshirdi: _____

ANDIJON 2014

MAVZU: Didaktikaning predmeti

Reja

1. Didaktikaning predmetini o'rgatish va o'rganishdagi uchta komponent.
2. Ta'lim tizimining yangi bo'g'inlarida uchta komponentning vazifalari.
3. Innovatsiyalarni to'plash jarayoni.
4. Pedagogik innovatsiyalarni to'plovchi va qo'llovchilarning ahamiyati

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuterlashtirish va komp'yuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televidenie va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi, "Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashniig barqaror tizimi shakllantiriladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. SHuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutahassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat ko'rinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi maqsad: egallangan bilim ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash, mustaqil ishlash, ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda pedagogik innovatsiya fani bilan bog'liq barcha masalalar to'la qamrab olinmagani sababli mazkur o'quv qo'llanmani mukammallashtirishda va bu borada o'z takliflarini bildirgan o'rtoqlarga oldindan minnatdorchilik bildirmiz.



Innovatsiya (in-“lik”, novus-“yangi”) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi.

Didaktikaning predmetini o'rgatish va o'rganishdagi uchta komponent

1. Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish ta'lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-birlari bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan birini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo'sh, nimani nimadan boshlash kerak? Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug'iladi: nimani (qanday mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchisiz yoki o'rgatmoqchisiz? O'rgatish ham, o'rganish ham asosiy maqsadga yo'naltirilgan ta'lim ob'ekti va oxirgi natija mahsuli bo'lmish ta'lim mazmuniga bog'liq.

Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga xos usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchiga bog'liq. SHunday qilib, didaktik tafakkur - bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. SHu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamalari qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi ham mustahkam o'rin olmoqda.

YUqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmuni asosiy o'rin tutadi. SHuning uchun ham, o'z oldimizga Davlat ta'lim standartlarini yaratish birinchi galdagi vazifa qilib qo'yildi. Bu vazifaning uddasidan chiqdik. Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanib, har bir ta'lim muassasalariga, har bir o'quvchiga etkazildi. Endigi vazifa shu standartlarni tezroq hayotga tatbiq etish mexanizmini yaratishdan iborat. Biroq, e'tirof qilish kerakki, hali Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimizda eng ko'p samara beradiganlarini tanlash, tajriba-sinovdan o'tkazish va qo'llash- joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmagan edi.


Ta'lim tizimining yangi bo'g'inlarida uchta komponentning vazifalari

2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab - quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga etarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki, Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal daraja bo'lib, davr o'quvchilarga ta'lim standartlari darajasi talablaridan oshirib bilim, iqtidor va ko'nikmalar berishni taqozo etadi. Bu masalani ijobiy hal qilish ilg'or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'rgan holda amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi. Bundan kelib chiqadigan amaliy hulosalar - ilg'or ta'limiy yangiliklarni aniqlash, ularning jamg'armalarini tashkil etish, sinab ko'rish, pedagogik amaliyotga joriy qilishning, ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratish masalasining dolzarbligini oshirdi. Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sa'y-harakatlar boshlab yuborilgan.

Jumladan, vazirlik, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari tarkibida Davlat ta'lim standartlari boshqarmalari va bo'limlari (monitoringi) tashkil etilgan. **Ta'limni boshqarish tizimida tashkil qilingan yangi bo'g'inlar quyidagi vazifalarni amalga oshirib bormoqda:**

- ✓ ta'lim sohasidagi qonunlar, me'yoriy hujjatlarning bajarilish nazoratini yuritish;
- ✓ Pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishning tashkiliy asoslarini yaratish zarur.

Buning uchun:



✓ “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga, tatbiq etish, Davlat ta’lim standartlari va dasturlari bajarilishining monitoringini olib borish;

✓ ta’limni boshqarish mahalliy organlari va o’quv muassasalarining umumiy tashkiliy pedagogik ishlari qatori pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini tahlil qilib borish;

✓ pedagogik tajribalarning borishini analitik tahlil qilish, umumlashtirish, ommalashtirish bo’yicha tavsiyalar tayyorlash;

✓ pedagogik texnologiyalarni kuzatuvchi, nazorat qiluvchi va joriy etuvchilarni o’quv ishini tashkil qilish shu masalaga oid seminarlar o’tkazish, treninglar tayyorlash choralari ko’rish;

✓ pedagogik texnologiyalarni rivojlajtirish haqida tegishli ma’lumotlar jamg’armasini yaratish, tahlil qilish va tartibga solib turish.

YUqorida ta’kidlanganidek, Davlat ta’lim standartlari- bu o’quvchilar bilim saviyasining minimal darajasini belgilaydi, bu darajadan yuqori ko’rsatkichlarga erishish uchun ma’lum izlanish hamda tashabbus lozim, pedagogik innovatsiyalarni yaratish, shuningdek, ularni boshqarish avvalam bor, ana shu dorlzarb vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi.

Innovatsiyalarni to’plash jarayoni

3. SHu boisdan ham pedagogik inovatsiyalarni izlab topish. o’rganish, tahlillar ostida eng ko’p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo’llash tartibini belgilab beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, buning uchun, innovatsiyalar haqida aniq ma’lumotlar jamg’armasini yaratish zarur bo’lib, buni shartli ravishda innovatsiyalarni «to’plash» jarayoni deb qabul qilamiz.

Innovatsion yangiliklarni to’plovchilar jadvalga ko’ra vazirlik tizimida yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti barcha ta’lim muassasalari rahbarlari malakasini oshirish bo’yicha doimiy ishlovchi Respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazi va respublika ta’lim markazi asosiy bo’g’in hisoblanadi. Mazkur ishlarni boshqaruvchi Davlat ta’lim standartlari monitoringi maktab pedagoglar kengashlari, metod birlashmalari, tuman, shahar xalq ta’limi bo’limlarida, viloyat malaka oshirish institutlarida o’rganib, to’plangan pedagogik innovatsiyalarni o’z vaqtida «TANLOVCHI»larga etkazish eki ayrimlarini to’g’ridan-to’g’ri «QO’LLOVCHI»larga yo’llashni muvofiqlashtirib boradi.

**Pedagogik innovatsiyalarni to'plovchi va
qo'llovchilarning ahamiyati**

4. Pedagogik innovatsiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi «Pedagogik texnologiyalar markazi»:

- ma'lumotning yo'nalishini aniqlaydi;
- joriy qilish va qo'llashda ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi;
- metodik qo'llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzatadi;
- reyting tizimi, o'quvchilarni maktabgacha tayyorlash, Davlat ta'lim standartlarini joriy qilishdagi ilg'or tajribalar majmuasini yaratadi;
- xorijiy davlatlardagi ta'lim sohasidagi tajribalarni o'rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- amaliyotga tatbiq qiluvchilarni o'qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuv ishlarini tashkil qiladi;
- pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- innovatsiyalarning qo'llanilishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- innovatsiyaga oid Respublika ilmiy-amaliy kengashlar yig'ilishlar va konferentsiyalar o'tkazadi;
- malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik kengashlarini yangi axborotlar bilan ta'minlab boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash bilan uni to'plab, ilmiy jihatdan xulosalar

tayyorlovchi bo'g'in o'rtasidagi «Pedagogik matbuot» asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni etkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanadi. O'ylaymizki, ta'lim texnologiyasi va pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv Davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: 1998.
2. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.-M.: 1989
3. Yo'ldashev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: 2001
4. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari.-T.: 2006
5. Ishmuhamedov R.J. va b.q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.: 2008